

---

## Savol bering, javob beramiz

**Savol:** Yaqinda tanishlarimdan o'zini-o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari to'g'risida eshitib qoldim. Men avtomashina bozorida vositachilik bilan shug'ullanaman. Men ishlab pul topayotgan olib borayotgan kasb ham o'zini-o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlariga kiradimi?

Javob: Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslarini balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida gi PQ-366-sonli Farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra 2022 yil 1-noyabrdan quyidagi faoliyat turlari o'zini-o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatiga kiritiladi.

- **uy hayvonlari (qoramol, qo'y, echki, ot va boshqalar) bozorlarida vositachilik xizmati;**
- **avtomobil bozorlarida vositachilik xizmati;**
- **rieltorlik xizmatini ko'rsatish (ijaraga uy topib berish, uy sotib olish va sotishga ko'maklashish);**
- **uyda sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash va sotish xizmati;**
- **maishiy buyumlarni ijaraga berish xizmati (stol-stul, idish-tovoq, asbob-uskuna va boshqalar);**
- **gips va ganchdan buyumlar yasash (uy jihozlari, ertak qahramonlari haykallarini yasash);**
- **tosh va tosh mahsulotlaridan yodgorlik, suvenir va dekorativ buyumlar tayyorlash;**
- **yog'och mahsulotlaridan savat, non mahsulotlari uchun maxsus idish va boshqa buyumlarni to'qish;**
- **uy sharoitida pilla yetishtirish, shaxsiy tomorqa er uchastkasida tut mevasi, niholi va ko'chatini etishtirish, uyda ipak mato, ipak gilam to'qish va sotish;**
- **kulolchilik.**

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak 2022 yil 1-noyabrdan boshlab siz shug'ullanagidan kasb ham o'zini-o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlariga kiradi.

***Buvayda tumani adliya bo'Imi***

***Inson huquqlarini himoya qilish***

***va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish***

***bo'linmasi bosh maslaxatchisi M.Abdullayev***

2022-12-30 13:20:44